

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
ROMAN-GERMAN TILLARI FAKULTETI
ISPAN VA ITALYAN TILLARI
KAFEDRASI

USMONOV DADAXON UMIRQUL O‘G‘LI

**ITALYAN TILIDA FE‘LLARNING NOANIQ SHAKLLARI VA
ULARNING SINTAKTIK VA MORFOLOGIK TAHLILI**

5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish (italyan tili) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun
taqdim etilayotgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“HIMOYAGA TAVSIYA
ETILADI”**

“Ispan va italyan tillari”

kafedrasi mudiri

_____ dotsent

Begmatov A.B.

2016 yil “ ____ ” _____

ILMIY RAHBAR:

_____ o‘qituvchi

Hakimov M.R.

SAMARQAND - 2016

Mundarija

KIRISH

I Bob. Italyan tilida fe'l va uning o'ziga xos xususiyatlari

- 1.1 Italyan tilida fe'lning grammatik mohiyati
- 1.2 Italyan tilida fe'llarning morfologik va funksional tasnifi.
- 1.3 Italyan tilida fe'lning o'ziga xos grammatik kategoriyalar

I bob bo'yicha xulosa

II Bob. Italyan tilida fe'llarning noaniq shakllari

2.1. Italyan tilida *Participio*, *Gerundio*, va *Infinito* fe'lning noaniq shakllari sifatida

2.2. Italyan tilidagi *Participio*, *Gerundio*, va *Infinito*larning yasalish strukturasi

II bob bo'yicha xulosa

III-Bob. Italyan tilida fe'llarning noaniq shakllari(*Participio*, *Gerundio*, va *Infinito*) ning morfologik va sintaktik xususiyatlari

- 3.1. *Participio*, *Gerundio*, va *Infinito*larning morfologik tahlili
- 3.2. *Participio*, *Gerundio*, va *Infinito*larning sintaktik tahlili

III bob bo'yicha xulosa

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

So'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy sohalarida ma'suliyatli vazifalarni qo'ydi. Bunday vazifalardan biri chet tillarni o'rganish va o'rgatishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'biri bilan aytganda, "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".¹ Mustaqil yurtimiz O'zbekistonda vatanimiz ravnaqi, gullab yashnashi, talaba yoshlarning har tomonlama bilim olishlari, ularning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, chet tillarni o'rgatish va jahon hamjamiyati bilan davomiy aloqada bo'lishga hukumatimiz tomonidan katta ahamiyat berib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston va Italiya davlatlari o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar rivoji uchun italyan tilini O'zbekistonda o'rgatish 1999-yildan yo'lga qo'yildi. Bunday murakkab vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun esa dastavval kuchli mutaxassislar zarurligi ta'kidlandi. Zero, yurtboshimiz Islom Abdug'anievich Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, "shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"². Sharq dunyosida azaldan ilm fanga juda katta e'tibor berib kelingan va ilmni o'rgatuvchi kishininig ma'suliyati juda katta hisoblangan. Zero, "ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar" – deyiladi hadislarda. Shunday ekan yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni zamon talablariga mos ravishda ta'lim berish katta ma'suliyat, bilim va g'ayrat yana yaxshi mutaxassis talab qiladi. Darhaqiqat, xorijiy tillarni jumladan, italyan tilini har tomonlama chuqur o'rganish

¹ Karimov I.A" *Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori*"– T.:O'zbekiston,1998. 8-bet.

² B.Mirkomilov, O. O'ralova, P. Muhammadiyev "Ma'naviy tiklanish va o'zlikni anglash" Toshkent "muharrir nashriyoti" 2010 4-bet

bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda aynan italyan tilini chuqur o'rganishga yordam bo'ladigan o'zbek talabarlari italyan tilini o'rganishlarida asosiy vosita hisoblanadigan o'quv qo'llanma tuzilishi va unda morfologiyaning ahamiyati, ikki tilda so'z turkumlari, ular o'rtasidagi o'xshash va noo'xshash tamonlarini farqlarni ko'rsatishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Mavzuning dolzarbligi. 2005-yildan buyon italyan tili birinchi til sifatida o'qitilishi yo'lga qo'yildi. O'zimizda italyan tilini o'rgangan o'qituvchilar darslarni o'zbek guruhlariga o'zbek tilida olib borsada, asosiy grammatik qo'llanmalarning tarjimalarini rus tilidatopish mumkin. Foydalaniladigan barcha adabiyotlar italyan yoki rus tilida yozilganligi sababli bu muammo o'rganilish bosqichida turibdi. O'z o'zidan ma'lum bo'ladiki, o'zbek talabalariga italyan tili morfologiyasini o'rgatishda o'zbek tilida yaratilgan o'quv qo'llanmalarning deyarli yo'qligi va ikki til grammatikasida so'z turkumlari o'rtasida farqlar mavjudligi, o'zbek talabalarida italyan tili so'z turkumlarini tushuntirishda o'z ona tili grammatikasi bilan qiyoslab tushuntirish eng muhim dolzarb masalaga aylanadi.

Italyan tili grammatikasining ko'plab xususiyatlari romanshunos tilshunoslar tomonidan har tomonlama ishlab chiqilgan. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, italyan tili morfologiyasida mustahkam va keng o'rin egallagan fe'l so'z turkumi o'ta serqirraligi bois hanuz ilmiy tadqiqotlar ob'ekti bo'lib kelmoqda. Xususan, fe'l so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalar muammosi o'ziga xos jihatlari orqali tilshunoslar diqqat markazidan o'rin olgan. Shuning uchunham biz o'z malakaviy ishimizni italyan tilidagi fe'l so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalar asosida olib borishga harakat qildik.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.Italyan tili yaqin bir necha yillardan buyon yurtimizda o'rgatilayotgani bois o'zbek tilida darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish bosqichi muhim o'rin egallagan. Shunday ekan, italyan tili grammatikasini o'zbek tili so'z turkumlari bilan solishtirilib o'rganish masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Olib borilishi lozim bo'ladigan tadqiqotlarda e'tibor qaratiladigan

mavzular o'zbek talabalarining italyan tilini oson va tez o'rganishlariga moslashtirilgan bo'lmog'i lozim. Mening bitiruv malakaviy ishim italyan tili morfologiyasining asosi bo'lgan fe'l so'z turkumining noaniq shakllariga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek talabalarida italyan so'z turkumlarini o'zbek tili so'z turkumlari bilan solishtirib, ular o'rtasidagi farqlarni yoritib berishdan iborat. Muammoning o'rganilganligiga o'qituvchilar tajribasi va talabalarning o'rganish davomida uchraydigan qiyinchiliklar tomonidan nazar tashlasak, muammoni hal etilish darajasida deb ayta olamiz.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad italyan tilidagi fe'l so'z turkumining noaniq shakllarini tahlil qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'yilgan masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi:

- hozirgi zamon italyan tilshunosligida fe'l so'z turkumining nazariy talqini hamda uning asosiy lingvistik mohiyatini tavsiflash;
- fe'l so'z turkumi italyan morfologiyasi tizimining asosiy so'z turkumlaridan biri ekanligini yoritish;
- italyan tilida fe'lning grammatik kategoriyalari tushunchasini tavsiflash;
- italyan tilida fe'l so'z turkumiga xos leksik va semantik xususiyatlarni, xususan, ularning semantikasini tavsiflash;
- italyan tilida fe'l so'z turkumining noaniq shakllariga xos morfologik xususiyatlarini o'rganish;
- italyan tilida fe'l so'z turkumining noaniq shakllariga xos sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish;

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti. Tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri hisoblangan morfologiya bitiruv malakaviy ishining obyektini tashkil etsa, undagi aynan fe'l so'z turkumi, uning noaniq shakllari esa bitiruv malakaviy ishining **predmetini** tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Italian morfologiyasining asosiy bo'limi hisoblangan fe'l so'z turkumining noaniq shakllarini morfologik va sintaktik jihatdan chuqur tahlil qilingan va nazariy ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi tahlil natijalari asosida nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika fanlarini o'qitishda, qolaversa, chet tilarini o'qitish va o'rganish jarayonlarida ham foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi qo'yilgan vazifalarning ketma-ket izchilligiga asoslanib, u kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, predmeti va ob'yekti yoritib berilgan.

Malakaviy ishning I bobi *Italian tilida fe'l va uning o'ziga xos xususiyatlari* deb nomlanib, u italyan tilida fe'lning grammatik mohiyati, italyan tilida fe'llarning morfologik va funksional tasnifi, italyan tilida fe'lning o'ziga xos grammatik kategoriyalari singari kichik punktlar asosida ochib berilgan;

Ishning II-bobi *Italian tilida fe'llarning noaniq shakllari* deb nomlanadi. Unda italyan tilidagi fe'llarning noaniq shakllariga tegishli xususiyatlar yoritib berilgan. Bob italyan tilida *Participio*, *Gerundio*, va *Infinito* fe'lning noaniq shakllari sifatida, italyan tilidagi *Participio*, *Gerundio*, va *Infinito* larning yasash strukturasi singari kichik punktlar asosida chuqur o'rganilgan.

Ishning III bobi *Italian tilida fe'llarning noaniq shakllari (Participio, Gerundio, va Infinito) ning morfologik va sintaktik xususiyatlar* deb nomlanadi va unda bu noaniq shakllarning morfologik va sintaktik tahlili olib borilgan.

Bundan tashqari ishda har bir bobga kichik xulosalar berilgan.

Ishning xulosa qismida malakaviy ish yuzasidan umumiy xulosalar berilgan.

Adabiyotlar ro'yxatidan nazariy adabiyotlar, lug'atlar, internet saytlari o'rin egallagan.

I bob

Italyan tilida fe'l va uning o'ziga xos xususiyatlari

1.1. Italyan tilida fe'lning grammatik mohiyati

Fe'llar harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlardir. Fe'l (lotincha *verbum*-so'z) yakka holda yoki gapning boshqa bo'laklari bilan birga gap egasiga tegishli ma'lumotlarni beruvchi o'zgaruvchan mustaqil so'z turkumidir. Fe'l so'z turkumi beradigan ma'lumotlar turlicha bo'lib, u quydagilarni ifodalashi mumkin: ega tarafidan bajarilgan harakatni: *Paola legge il giornale-Paola jurnalni o'qidi*. Bir vaqtning o'zida ham ega tarafidan bajarilgan harakatni: *Paola si veste-Paola kiyinmoqda*. Eganing holatini: *Paola sta spesso in casa-Paola tez-tez uyda qoladi*. Eganing mavjudligi *C'e Paola nella stanza-Xonada Paola bor*. Bularning hammasi o'ziga xos xususiy tomonlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan tomoni ham mavjuddir, ya'ni bularning hammasi zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi hodisalar bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bu hodisalarning hammasi *nima qilmoq?* so'rog'ig'a javob bo'ladi. Ularni bir guruhga kiritish va "fe'l" deb atashda ham xuddi ana shu xususiyati asos bo'lib hisoblanadi.

Fe'l mustaqil so'z turkumi bo'lib, u harakat, holat yoki jarayonni, ya'ni ma'lum bir belgining paydo bo'lishi va o'zgarishi kabilarni harakatni ifodalaydi. Fe'lga xos bunday ma'nolarning barchasi uni boshqa so'z turkumlaridan farqlashga yordam beradigan umumiy harakat ma'nosiga borib taqaladi.

Roman tilshunoslari ta'kidlaganidek, fe'l vaqt davomida sodir bo'ladigan belgining, harakatning grammatik ahamiyatini ifodalaydigan so'z turkumi bo'lib hisoblanadi (Arrivé M., Gadet F., Galmiche M., *La grammaire d'aujourd'hui*, Paris, 1986.-R. 104). Harakatning grammatik ahamiyatini keng ma'noda tushunish mumkin. U nafaqat harakat va tom ma'nodagi faoliyatni ifodalaydi, balki holatni va ma'lum bir predmet yoki shaxsning mavjudligini ko'rsatadi. Masalan:

Ve lo prometto. – Men sizga va'da beraman;

Mario dorme. - Mario uxlayapti.

Gino dipinge un quadro. – Jino rasm chizayapti;

Gino guarda la TV. - Djino televizor ko'rayapti.

Muhimi shundaki, fe'l o'zida ma'lum bir vaqt davomida sodir bo'ladigan harakatga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Bu xususiyatlar fe'lning shaxsli shakllarida namoyon bo'ladi va shuning uchun ham fe'l shaxsli shakllarining sintaktik vazifasi gapda faqat kesim sifatida qo'llanilishdan iboratdir.

Fe'lning so'z o'zgartirish tizimi boshqa so'z turkumlariga qaraganda ancha boy va xilma-xildir. U nafaqat flektiv tillarga xos bo'lgan sintetik usulga ega, balki o'zakka formantlar qo'shilishi yoki analitik usulga ham egadir. SHuni ta'kidlash joizki, fe'l analitik shakllarga ega bo'lgan yagona so'z turkumi hisoblanadi. Fe'llarning so'z o'zgartiruvchi tizimiga alohida e'tibor qilsak, affiksatsiya usuli bilan yasaladigan suffiksli fe'llar ancha ko'pchilikni tashkil etishining guvohi bo'lamiz.

Italyan tilida fe'llar odatda uch guruhga bo'linadi, ya'ni birinchi guruhga **-are** (*parlare-gapirmoq*), ikkinchi guruhga **-ere** (*vedere*) va uchinchi guruhga esa **-ire** (*partire-jo'nab ketmoq*) qo'shimchalari bilan tugagan fe'llar kiradi. SHulardan birinchi guruhga tegishli bo'lgan **-are** qo'shimchali fe'llar ancha keng tarqalgan fe'llardan bo'lib hisoblanadi.

Italyan tilida fe'llar tashqi tuzilishiga ko'ra grammatik kategoriyalari va sintaktik vazifalariga bog'liq tarzda shaxsli va shaxssiz shakllarga bo'linadi. Fe'llarning shaxsli shakllari gapda doimo kesim vazifasini o'taydi, shaxssiz shakllari esa gapda turli xil gap bo'laklari vazifasida kelishi mumkin, lekin hech qachon kesim vazifasida qo'llanila olmaydi. "*SHaxssiz*" degan atamadan ham ko'rinib turibdiki, ular shaxs grammatik kategoriyasiga ega emas, shuningdek, son va mayl kategoriyalari ham ularda mavjud bo'lmaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, fe'llar gapda doimo kesim vazifasini o'taydi. Bu holat esa ularning sintaktik xususiyatlarini ko'rsatuvchi asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Xususan, ularning gapda ot kesim va fe'l kesim vazifasida ishtirok etishi shular jumlasidandir. Fe'llar yordamida amalga oshadigan bunday sintaktik hodisalar ularga xos predikativlik funksiyasini namoyon etuvchi muhim sintaktik

jarayonlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Keltirilgan bu holatlar fe'llarning shaxsli shakllariga xos xususiyatlar bo'lib sanaladi.

Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, italyan tilida fe'llarning shaxssiz shakllari ham mavjud bo'lib, ularda shaxsli shakllar ega bo'lgan xususiyatlarni o'zlarida aks ettirish xususiyati mavjud emas, ya'ni ular shaxsli shakllarga ega bo'lgan fe'llardan sintaktik nuqtai nazardan tubdan farq qiladi. Ya'ni ular gapda kesim vazifasida emas, balki, boshqa gap bo'laklari, jumladan, ega, to'ldiruvchi va aniqlovchi kabi sintaktik funksiyalarni bajarishi mumkin.

Italyan tilida fe'lning shaxssiz shakllarini infinitiv, gerundiy va sifatdoshlarni tashkil etadi. Shulardan *Infinito* –infinitiv fe'llarning noaniq shakli bo'lib, u fe'llarga xos bo'lgan shaxs, son, mayl, zamon va nisbat kategoriyalarining birortasiga ham ega emas. Biroq infinitivlarning gapda modal fe'llar bilan birgalikda kelgan shakllari bu holatlardan mustasnodir. Masalan, *Devo svegliarmi presto – Men erta uyg'onishim kerak* degan gapda fe'lning shaxssiz shakli bo'lib hisoblangan infinitiv boshqa asosiy fe'lga yordamchi sifatida xizmat qilmoqda.

Italyan tilida infinitivlarning ikki xil zamon shakli mavjud. Bular *presente (leggere, partire)* va *vapassato (aver letto, essere partito)* zamonlaridir. Infinitivlarning zamonga xos shakllari absolyut vaqtni ifodalamaydi, balki boshqa hodisalarning zamonga muvofiqligini ko'rsatadi.

Italyan tilida infinitivlar mustaqil (*indipendente*) va tobe (*dipendente*) infinitivlarga bo'linadi. Shulardan mustaqil infinitivlar boshqa fe'l shakllariga tobe bo'lmaydi va ular gapda quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

1. Ega vazifasida:

Fumare è nocivo alla salute. – Chekish – sog'lik uchun zararli.

Praticare lo sport fa bene alla salute.- Sport bilan

shug'ullanish sog'lik uchun foydali..

2. Ritorik savollarni ifodalovchi emfatik gaplarda:

Cosa rispondere? – Qanday javob berish kerak?
Dove andare? – Qaerga borish kerak?
Che fare? – Nima qilish kerak?

3. His-hayajon gaplarda:

Piuttosto morire! Che andarci! – U erga borgandan ko‘ra, O‘lgan afzal!

Vivere! Come è bello! - Yashash! Qanday go‘zal!

Italyan tilida infinitiv shakllar buyruq gaplarda keng qo‘llaniladi. Bunday holatni quyidagi misollar orqali ko‘rish mumkin:

1. Og‘zaki nutqda: *Circolare! Circolare!- O‘ting! O‘ting!*
2. Og‘zaki nutqning yozma shaklida: *Evitare il contatto con gli occhi. – Ko‘zga tushishidan ehtiyot bo‘ling;*
3. O‘quv darsliklaridagi topshiriqlarda: *Volgere al plurale. – Ko‘plikka qo‘ying;*

Mustaqil bo‘lmagan infinitivlar esa gapda ma‘lum bir fe‘l yordamida boshqariladi. Masalan, bu holatga quyidagicha misol keltirish mumkin: *Non vuole partire. – U ketishni xohlamaydi.; Il suo sogno è (di) tornare. – Uning orzusi-qaytish;* *L'importante è (di) non fumare. – Muhimi - chekmaslik..*

Bundan tashqari, infinitivlar Infinito con Accusativo oborotida ham qullanishi mumkin: *Lo vedevo entrare. – Uning qanday kirayotganini ko‘rdim;* *La sento cantare. – Uning qanday kuylayotganini eshitdim.* SHuningdek, kauzativ qurilmalarda ham infinitivlar keng tarzda ishlatiladi: *Non si fece pregare – U o‘zini kutishga majbur qila olmaydi.*

Italyan tilida fe‘llarning shaxssiz shakllaridan yana biri gerundiy bo‘lib, u fe‘llarga xos ikkinchi darajali harakatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Uning tilda ikki xil shakli mavjuddir: *presente* va *passato*. Masalan, ularga shunday misollar keltirish mumkin: *lavorando - ishlayotib, partendo- ketayotib, svegliandosi – uyg‘onayotib, avendo lavorato – ishlab, essendo partito – ketib, essendosi svegliato - uyg‘onib.*

Italyan tilida fe'llarning shaxssiz shakllaridan yana biri sifatdosh(*participio*) bo'lib, u o'zida sifatga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Uning tilda ikki xil shakli mavjuddir: *presente* va *passato*. Masalan quyidagi misollarga e'tibor qilaylik: *I beni appartenenti ai singoli individui.*- alohida shaxsga tegishli mulk; *Le statue raffiguranti marinai, soldati, partigiani vanno eseguiti in bronzo.*- Moryak, soldat va partizanlarni aks ettiradigan haykallar bronzadan qilinishi lozim. Ularning o'tgan zamon shakllari ko'pincha o'timli fe'llar bilan yasaladi. Masalan:

un problema risotto recentemente– Yaqinda hal qilingan masala;
un libro letto – o'qilgan kitob;

1.2. Italyan tilida fe'llarning morfologik va funksional tasnifi.

Italyan tilida mavjud bo'lgan fe'llarning barchasi ma'lum bir morfologik xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Bu ma'lum bir morfologik xususiyat ularning zamonlarda tuslanish usullari bilan bog'liqdir.

Birinchi guruhga to'g'ri fe'llar, ikkinchi guruhga esa noto'g'ri fe'llar kiradi. Tilshunoslikda ba'zi bir olimlar ularni standart va standart bo'lmagan fe'llar guruhi deb ataydi. Birinchi guruh, ya'ni to'g'ri tuslanuvchi fe'llar tuslanish paradigmasidan uzoqlashmagan holda ma'lum bir qoidagi tobe tarzda, xususan, fe'l o'zagiga tegishli shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Shuning uchun ham ular to'g'ri tuslanuvchi fe'llar deb ataladi. Masalan, *cantare - canto canti canta cantiamo cantate cantano*. Noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar esa belgilangan ma'lum qoidalarga bo'ysinmaydi vash u sababli uham ular noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar deb ataladi. Ularga *avere* (ega bo'lmoq) va *essere* (bor bo'lmoq) kabi fe'llar kiradi.

Bundan tashqari, italyan tilida modal fe'llar ham mavjudki, ular ham noto'g'ri fe'llar tarkibiga kiradi. Masalan, ularga misol tariqasida quyidagi fe'llarni keltirish mumkin:

Potere (qila olmoq): *posso, puoi, può, possiamo, potete, possono;*

Volere (xohlamoq): *voglio, vuoi, vuole, vogliamo, volete, vogliono;*

Dovere (qilishi kerak bo'lmoq, majbur bo'lmoq): *devo (ba'zan debbo), devi, deve, dobbiamo, dovete, devono (ba'zan debbono)*

Sapere (bilmoq): *so, sai, sa, sappiamo, sapete, sanno;*

Shuningdek, italyan tilida yana shunday fe'llarni alohida ajratib ko'rsatish lozimki, ular tuslanish jarayonida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bularga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

Dare (bermoq): *do, dai, da, diamo, date, danno;*

Fare (bajarmoq): *faccio, fai, fa, facciamo, fate, fanno;*

Dire (gapirmoq): *dico, dici, dice, diciamo, dite, dicono;*

Bere (ichmoq): *bevo, bevi, beve, beviamo, bevete, bevono;*

Tradurre (tarjimaqilmoq): *traduco, traduci, traduce, traduciamo, traducete, traducono;*

Fe'llarning funksional tasnifi haqida gapirar ekanmiz, avvalo shuni ta'kidlash joizki, ularning funksional jihatdan tasniflanishi fe'llarning gapda kesimning u yoki bu turi vazifasida kelishi bilan bog'liqdir. Fe'llarning bunday xususiyati bevosita leksik jihatdan to'liq ma'noga egaligining darajasidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra ular mustaqil va yordamchi fe'llarga bo'linadi. Mustaqil fe'llar leksik jihatdan to'liq qiymatga va mustaqil ma'noga ega bo'lib, ular ma'lum bir harakat yoki holatni ifodalay oladi. Yordamchi fe'llar esa gapdagi kesim tarkibida sof grammatik vazifani bajaradi.

Yordamchi fe'llar o'z navbatida yordamchi va bog'lovchi fe'llarga bo'linadi. Yordamchi fe'llar fe'llarning analitik shakllarida sof grammatik komponent sifatida ishtirok etadi. Bunda ular leksik qiymatlarini batamom yo'qotadilar va shuning uchun ham ular boshqa mustaqil fe'llar bilan birikish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Masalan, yaqin o'tgan zamonni (Passato prossimo) ifodalash uchun yordamchi fe'llardan foydalaniladi. Buning uchun *essere* yoki *avere* fe'llari hozirgi zamonda tuslanadi va tuslanishi kerak bo'lgan asosiy fe'lning o'tgan zamon sifatdoshi (Participio passato)unga qo'shiladi. Buni quyidagicha jadvalda yaqqolroq aks ettirish mumkin:

		<i>avere</i> fe'li bilan	<i>essere</i> fe'li bilan
		tuslanuvchife'llar	tuslanuvchife'llar
Birlik	1-sh. ho		sono
	2-sh. hai	+ sifatdosh (lavorato)	sei + sifatdosh (partito/-a/)
	3-sh. ha		è
Ko'plik	1-sh. abbiamo		siamo
	2-sh. avete	+ sifatdosh (lavorato)	siete + sifatdosh (partiti /-e/)
	3-sh. hanno		sono

Bundan tashqari, yana shuni ta'kidlash mumkinki, italyan tilida bu ikala yordamchi fe'llarning qanday holatda qaysi fe'llar bilan birgalikda qo'llanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holatni quyidagicha tarzda ifodalash lozim:

Italyan tilidagi *avere* yordamchi fe'li bilan shunday fe'llar tuslanadi:

1. Italyancha *fare, leggere, vedere* kabi o'timli fe'llar :

*No fatto il mio lavoro. – Men ishimni qildim;
Na letto questo libro.– U bu kitobni o'qidi;
Abbiamo visitato Firenze. – Biz Florensiyaga tashrif buyurdik.*

2. *avere* fe'lining o'zi bilan:

*No avuto poco tempo. – Mening vaqtim kam edi;
Nanno avuto da fare. – Ularning ishlari bor edi;*

3. Bir qancha *parlare, bussare, lavorare* kabi o‘timsiz fe’llar bilan, shuningdek, insonlarga xos psixofizik holatlarni ifodalovchi *piangere, ridere, dormire, mangiare* kabi fe’llar bilan:

Ha dormito bene. – U yaxshi uxlab turdi;
Ci hanno sorriso. – Ular bizga qarab jilmayishdi;
Abbiamo mangiato bene. Biz yaxshi ovqatlanidik;

4. Tabiiy hodisalarni ifodalovchi fe’llar bilan:

Na piovuto tutta notte. – Tuni bilan yomg‘ir yog‘di;
Na lampeggiato. – Momaqaldiroq gumburladi

Agar gapda asosiy e’tibor tabiat hodisasiga emas, balki, uning natijasiga nisbatan qaratilgan bo‘lsa, u holda *essere* yordamchi fe’lidan foydalaniladi:

Ieri è piovuto: le strade sono bagnate. – Kecha yomg‘ir yog‘di : ko‘chalar ho‘l.

Bunday hollarda *avere* fe’li bilan yuqoridagi kabi fe’llarning birikishi mumkin emas, lekin u o‘zining leksik ma’nosini yo‘qotishi ularning gap kesimini birgalikda tashkil etishini taqozo etmoqda. Komponentlar o‘rtasidagi sintaktik munosabatning bunday tarzda yo‘qolishi analitik shakllarning asosiy belgilaridan biri sanaladi.

Italyan tilidagi *essere* fe’li bilan quyidagi fe’llar tuslanadi:

1. Ko‘pchilik o‘timsiz fe’llar, ya’ni *stare, rimanere, nascere, morire* kabi hamda *andare, partite, entrare, uscire* singari harakat fe’llari :

É andato a casa. – U uyga ketdi.
Sono tornati. – Ular qaytishdilar.

2. *svegliarsi, alzarsi, lavarsi* kabi barcha olmoshli fe’llar:

Gino si è alzato tardi. - Djino kech turdi.

3. Majhul shakldagi fe'llar:

*Il ponte è stato costruito recentemente. – Ko'prik yaqinda qurilgan edi;
L'appuntamento è stato rimandato. – Uchrashuv boshqa kunga qoldirilgan.*

Yordamchi fe'llarning ikkinchi mayda guruhini bog'lovchi fe'llar tashkil etadi. Ularning grammatik vazifasi ma'lum bir predmet(hodisa)ni o'zining biror bir belgisi bilan bog'lab ko'rsatishdan iboratdir. Ular bog'lovchi – fellar deb atalib, gapda xuddi mustaqil sintaktik birlik sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bog'lovchi-fe'llarning bir guruhi ma'lum bir ma'noda leksik semantikaga ega bo'lsa, yana bir guruhi esa, o'zlarida aynan bog'lovchilik xususiyatini aks ettiradi.

Mustaqil fe'llar quyidagi xususiyatlariga ega: harakatni bildiradi, ya'ni mustaqil ma'noga ega bo'ladi va gapda uning biror bo'lagi sifatida kela oladi.

Yordamchi fe'llar esa, harakatni bildirmaydi, ya'ni mustaqil ma'noni ifodalay olmaydi deb izoh beriladi. Lekin, italyan tilida butunlay yordamchi fe'lga aylangan, ya'ni mustaqil ma'nosini yo'qotib, faqat yordamchi fe'l sifatida qo'llaniladigan birorta ham fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar yordamchi fe'l vazifasida qo'llaniladi va turli-tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Italyan tili grammatikasida yuqoridagi fe'llardan tashqari modal fe'llar ham mavjud bo'lib, ular agensning harakatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bu munosabat o'z navbatida imkoniyat va majburiyat ma'nolaridan tashkil topadi. Bu esa modal fe'llarga xos asosiy grammatik ma'nolar hisoblanadi.

Modal fe'llarda shaxs va son kategoriyalari mavjud bo'lmaydi. Ularning hammasi ham o'tgan zamon shakliga ega emas. Kelasi zamon shakllari esa ularda umuman yo'q. Shuning uchun ham kelasi zamon ma'nosi ularda tasviriyl qurilmalar orqali ifodalanadi.

Fe'l anglatgan harakat va holatning ob'ektga bo'lgan munosabati turlicha bo'ladi. Bir xil fe'llar harakatning biror narsaga o'tganligini bildiradi. Ba'zi fe'llar esa harakatning predmet-ob'ektga o'tmaganligini bildiradi. Shuning uchun ham

fe'llar harakat va holatning predmet-ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab ikki turga bo'linadi: 1) o'timli fe'llar va 2) o'timsiz fe'llar.

O'timlilik semantik-sintaktik kategoriya hisoblanadi. Uning semantik tomoni shundan iboratki, u fe'l bilan to'ldiruvchi o'rtasidagi ma'noviy bog'liqlikni ifodalaydi. Italyan tilida ko'pchilik fe'llar to'ldiruvchisiz qo'llanilmaydi. Agar qo'llanilganda ham fe'l o'zning ma'nosini o'zgartiradi. O'timlilikning sintaktik tomoni shundan iboratki, u fe'lning aynan vositasiz to'ldiruvchi bilan bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Fe'l turkumiga xos kategoriyalardan o'timlilik va o'timsizlik doimo tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bu hodisa hamon tilshunoslar e'tiborini tortmoqda. Bu borada qanchadan-qancha tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Ularning ushbu masala yuzasidan yuritgan fikrlariga nazar tashlasak, shu narsa ayon bo'ladiki, uning til sathlaridan qaysi biriga xosligi masalasi olimlarni o'ziga jalb qiladi. Bu kategoriya fe'l so'z turkumiga xos. Demak, u morfologik sath ob'ekti bo'lib hisoblanishi kerak. Ammo uning morfologik ko'rsatkichi mavjud emas. Shuning uchun o'timlilik va o'timsizlik ma'nosi fe'l asosining semantikasi bilan belgilanadi va fe'l ifodalagan harakatning ob'ektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu sintaktik sathda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, bu kategoriya qaysi sath ob'ekti degan savol tug'ilishi tabiiy.

Ko'pchilik tilshunos olimlarning fikricha, ma'lum bir fe'ldan anglashilayotgan harakat sub'ektdan ob'ektga o'tsa va unga ta'sir qilsa bunday fe'llar o'timli fe'llar deb ataladi.

O'timli fe'llar doimo biror bir ob'ektni talab etadi, chunki o'timli fe'l gapda to'ldiruvchisiz ishlatilsa gapning ma'nosi to'liq bo'lmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham ular ob'ekтли fe'llar deb ataladi. Italyan tilida o'timli fe'llar gapda S+V+O formulasi asosida namoyon bo'ladi. Bunda S – ega, V – kesim, O – vositasiz to'ldiruvchi ma'nosini anglatadi. Ba'zi bir tilshunoslar o'timlilik va o'timsizlik kategoriyasiga alohida to'xtalmaydilar va to'g'ridan-to'g'ri nisbat kategoriyasi bilan bog'lab tasvirlaydilar.

Fe'l mustaqil so'z turkumi bo'lib, u harakat, holat yoki jarayonni, ya'ni ma'lum bir belgining paydo bo'lishi va o'zgarishi kabilarni harakatni ifodalaydi. Fe'lga xos bunday ma'nolarning barchasi uni boshqa so'z turkumlaridan farqlashga yordam beradigan umumiy harakat ma'nosiga borib taqaladi.

Italyan tilida fe'llar odatda uch guruhga bo'linadi, ya'ni birinchi guruhga **-are** (*parlare-gapirmoq*), ikkinchi guruhga **-ere** (*vedere –ko'rmoq*) va uchinchi guruhga esa **-ire** (*partire-jo'nab ketmoq*) qo'shimchalari bilan tugagan fe'llar kiradi. Shulardan birinchi guruhga tegishli bo'lgan **-are** qo'shimchali fe'llar ancha keng tarqalgan fe'llardan bo'lib hisoblanadi.

Fe'llarning funksional tasnifi haqida gapirar ekanmiz, avvalo shuni ta'kidlash joizki, ularning funksional jihatdan tasniflanishi fe'llarning gapda kesimning u yoki bu turi vazifasida kelishi bilan bog'liqdir. Fe'llarning bunday xususiyati bevosita leksik jihatdan to'liq ma'noga egaligining darajasidan kelib chiqadi. SHunga ko'ra ular mustaqil va yordamchi fe'llarga bo'linadi. Mustaqil fe'llar leksik jihatdan to'liq qiymatga va mustaqil ma'noga ega bo'lib, ular ma'lum bir harakat yoki holatni ifodalay oladi. Yordamchi fe'llar esa gapdagi kesim tarkibida sof grammatik vazifani bajaradi.

Modal fe'llarda shaxs va son kategoriyalari mavjud bo'lmaydi. Ularning hammasi ham o'tgan zamon shakliga ega emas. Kelasi zamon shakllari esa ularda umuman yo'q. Shuning uchun ham kelasi zamon ma'nosi ularda tasviriy qurilmalar orqali ifodalanadi.

Fe'l anglatgan harakat va holatning ob'ektga bo'lgan munosabati turlicha bo'ladi. Bir xil fe'llar harakatning biror narsaga o'tganligini bildiradi. Ba'zi fe'llar esa harakatning predmet-ob'ektga o'tmaganligini bildiradi. Shuning uchun ham fe'llar harakat va holatning predmet-ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab ikki guruhga bo'linadi.

1.3. Italyan tilida fe'lning o'ziga xos grammatik kategoriyalar

Har qanday til grammatik qurilishining asosiy elementi grammatik kategoriyadir. Ma'lum grammatik ma'nolar va ularga xos ifoda shakllarining bir

butun sistemasi grammatik kategoriya deb yuritiladi. Grammatik ma'no bilan uning shakliy ifodasi birgalikda bir butunlik hosil qiladi. Bunda biri boshqasiz mavjud bo'lmaydi va ular nazariy grammatikada grammatik belgi degan tushuncha zamirida yotadi. U o'zida shakl va mazmun birligini gavdalantiradi. Bunday belgining mazmuni ikki va undan ortiq ma'nolar qaram-qarshiligidan yuzaga keladi. Grammatik kategoriya so'zlarning shaklan o'zgarishida yoki yordamchi so'zlarning ishlatilishida, so'z tartibining o'zgarishida va gapdagi intonatsiyada o'z ifodasini topadi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, grammatik kategoriya grammatik ma'no va grammatik shakl majmuasidan iboratdir. Grammatik kategoriya til biriklariga xos bo'lgan umumlashgan xarakterdagi umumiy ma'nolar bo'lib, grammatik ma'no bu umumiy ma'nolarning xususiy ko'rinishidir. Grammatik kategoriyaning mazmun doirasini muayyan lisoiniy vositalar orqali ma'lum so'z turkumlarida, birikmalarida va gaplarning turlarida o'z ifodasini topgan umumiy ma'nolar tashkil etadi.

Grammatik kategoriya termini grammatik ma'noga nisbatn kengdir. Masalan, italyan tilidagi otlarda *-i* morfemasi orqali ifodalangan ko'plik formasi bunday maxsus ko'rsatkichning yo'qligi, ya'ni *-nol* forma bilan ifodalangan uning birlik formasiga ziddir

Umumiy grammatik ma'noni tashkil etuvchi xususiy ma'nolar bir-biriga zid bo'ladi, bir-birini inkor qiladi va shu bilan birga bir-birini doimo taqozo qiladi. Masalan, otlarga xos grammatik son kategoriyasi deb nom olgan til hodisasini ko'rib chiqaylik: *libro – libri*, ya'ni *kitob – kitoblar*.

Chap tomondagi so'zlarni biz son nuqtai nazaridan birlik deymiz. Bunday deyishimizga sabab-ular ikkinchi ustundagi so'zlardan farq qiladi. Chunki, o'ng tomondagi so'zlardagi *-i* unsuri ularda mavjud emas.

O'ng tomondagi so'zlarni biz ko'plikda deymiz, chunki ular chap tomondagi so'zlardan o'zlaridagi *-i* qo'shimchasining borligi bilan farq qiladi. Shunday qilib, grammatik ma'no qiyoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Chap va o'ng tomondagi so'zlarning keltirilgan grammatik ma'nolari bir-biriga zid, ya'ni birlik va ko'plik ma'nolari. Lekin, ana shu bir-biriga zid ikki xil ma'no birgalikda son kategoriyasini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu kategoriyaga kiruvchi birlik va ko'plik ma'nolari doimo biri ikkinchisini bor bo'lishini taqozo etadi. Tillarda birlik ma'nosi borligi uchun biz ko'plikni ajrata olamiz yoki aksincha, tillarda ko'plik ma'nosi borligi uchun birlikni farqlay olamiz. Agar tillarda otlar faqat birlikda ishlatilganda, biz ko'plik to'g'risida hech qachon gapirmagan bo'lar edik, birlik tushunchaga ham hojat qolmagan bo'lar edi. Bu fikr tushunarli bo'lishi uchun antonim so'zlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Masalan, *yaxshi* degan tushuncha borligi uchun, biz *yomonlik*ni ajratamiz, *torlik* tushunchasi borligi uchun *kenglik* tushunchasini ajratamiz va hokazo.

Grammatik kategoriyalar grammatik ma'no va grammatik shakldan tashkil topadi. Masalan, yuqorida ko'rib chiqilgan son kategoriyasini shu nuqtai nazardan quyidagicha izohlash mumkin:



Grammatik kategoriyalar ifodalanish usuligi ko'ra uch turgabo'linadi:

- 1) sintetik grammatik kategoriyalar;
- 2) analitik grammatik kategoriyalar;
- 3) aralash grammatik kategoriyalar yoki sintetik – analitik grammatik kategoriyalar;


Sintetik grammatik kategoriyalar affiksial morfemalar orqali ifodalanadi. Masalan, italyan tilidagi son va kelishik kategoriyalari shular jumlasidandir.

Analitik grammatik kategoriyalar faqat yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi. Masalan, italyan tilidagi o'tgan zamonning yasalishiga o'xshash hollarda buning guvohi bo'lishimiz mumkin:

*No fatto il mio lavoro. – Men o‘z ishimni bajardim;
Na letto questo libro. – U bu kitobni o‘qib chiqdi;*

Aralash yoki sintetik-analitik grammatik kategoriyalar bir vaqtning o‘zida ham analitik, ham sintetik vositalar bilan yoki boshqacha qilib aytganda, ham grammatik affiksalar, ham mustaqil grammatik morfemalar yordamida ifodalanadi. Bunday grammatik kategoriyalar italyan tilida ko‘plab uchraydi. Masalan, italyan tilidagi fe‘llarda nisbat kategoriyasi quyidagicha yasaladi:

Nisbat kategoriyasi



Misol keltirsak, bu narsa yanada yaqqol namoyon bo‘ladi:

Il ponte è stato costruito recentemente. – Ko‘prik yaqinda qurilgan edi;

Shunday qilib, tilshunoslikdagi grammatik kategoriya tushunchasi grammatik ma‘no va grammatik shakldan iborat tushunchani tashkil etadi.

So‘z turkumlariga xos grammatik kategoriyalar xususida gap ketganda shuni ta‘kidlash lozimki, har qanday tilda grammatik kategoriyalar soni turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, kurs ishimizning tadqiqot ob‘ekti hisoblangan fe‘llarga xos grammatik kategoriyalarni olib qaraylik. Ular barcha tillarda har xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida fe‘llarda rod kategoriyasi mavjud emas. Lekin bu kategoriya italyan tili fe‘l so‘z turkumiga xos grammatik kategoriya bo‘lib hisoblanadi.

Dastlabki vazifalariga ko‘ra grammatik kategoriyalar 3 guruhga bo‘linadi:

1. Ob‘ektiv borliqdan mazmun kasb etadigan kategoriyalar. Bunday kategoriyalarda gapiruvchining nuqtai nazariga bog‘liq bo‘lmagan holda moddiy borliqdagi ob‘ektlarning xususiyati va munosabati aks ettiriladi. Otlardagi rod kategoriyasini, shart. Sabab va shu kabi munosabatlarni ifodalaydigan sintaktik kategoriyalarni ob‘ektiv kategoriyalar qatoriga kiritish mumkin.

2. Sub'ektiv va ob'ektiv mazmunli kategoriyalar. Bunday kategoriyalarda gapiruvchining nuqtai nazariga binoan moddiy borliqdagi ob'ektlarning xususiyati va munosabati aks ettiriladi. Olmoshlardagi shaxs, fe'llardagi daraja, mayl, zamon shunday kategoriyalar hisoblanadi. Muloqot qilayotganlarning mavzudan nechog'lik xabardor ekanligiga ishora qiladigan tildagi determinatsiya, kommunikativ birliklarning aktual bo'laklarga bo'linishi, savol va boshqalarni ham manna shu kategoriya turiga kiritish mumkin.

3. Assementik formal kategoriyalar. Sifatlardagi rod va son, ayrim predloglarning bog'lovchi funksiyasi formal kategoriyalarga kiradi.

Ayrim grammatik kategoriyalar o'z vazifalarini o'zgartirishi va hatto yo'qotishi ham mumkin. Masalan, italyan tilidagi sanaladigan otlarda son kategoriyasi mazmun kasb etadi, ammo sanalmaydigan otlarga nisbatan ishlatilgan ko'plik kategoriyasi o'z vazifasini yo'qotadi.

Ma'lumki, grammatik kategoriyalar so'zlarning turkumlanishida va ularning muayyan turkum ichida guruhlanishida katta ahamiyatga ega. Binobarin, grammatik kategoriyalar so'zlarni tasniflash va ularni o'zgartirish xususiyatlariga ko'ra ham guruhlanishi mumkin. Italyan tilidagi fe'l so'z turkumining ichidagi guruhlanishiga, ularning to'g'ri va noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar guruhiga bo'linishini kiritish mumkin.

So'z o'zgartiruvchi grammatik kategoriyalar tilda ko'pchilikni tashkil etadi va quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof grammatik kategoriyalar. Bunday grammatik kategoriyalar muayyan turkumga oid so'zlarning barchasiga xos bo'ladi. Masalan, sifatlardagi rod va son, fe'llardagi zamon va mayl kabilar.

2. Leksik-grammatik kategoriyalar . Bunday grammatik kategoriyalar muayyan turkumga oid so'zlarning ma'lum qismigagina xos bo'ladi. Masalan, fe'llarda nisbat kategoriyasi, ya'ni faqat o'timli fe'llardagina majhul nisbat yasash mumkin bo'ladi.

Har bir grammatik kategoriya ma'lum ma'noga ega va u leksik ma'no bilan chambarchas bog'liq. Ammo grammatik ma'noning va leksik ma'noning tabiati turlicha bo'ladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlarini quyida ko'rib chiqamiz.

Grammatik ma'no va leksik ma'no bir-biridan quyidagilar bilan farq qiladi:

1. Nominativ funksiyaga ega yoki ega emasligi bilan. Grammatik shakllar nominativ funksiyani bilvosita bajarishi mumkin yoki umuman bajarmasligi ham mumkin. Ular borliqdagi ob'ektlarga bilvosita ishora etishlari yoki ishora etmasligi ham mumkin.

Leksik ma'no so'zning lug'aviy ma'nosidir. Uning tarkibi predmetlarni nomlash, belgi harakat tushunchalarini ifodalash, emotsiyalarni bildirish vash u kabilardan iborat. Grammatik ma'no leksik ma'noning kategorial libosidir. Masalan, otlardagi rod, son, aniqlik va noaniqlik kategoriyalar, fe'llardagi zamon, mayl nisbat shaxs va son kategoriyalari leksik ma'noni konkretlashtiradi. Ularning formal ma'nolari esa so'z orasidagi munosatlarni ko'rsatadi.

2. Kategorial ma'noga ega yoki ega emasligi bilan. Grammatik ma'noning ko'lamini leksik ma'nonikiga nisbatan ancha keng va mavhumdir. Grammatik ma'noning ko'lamini leksik ma'nonikiga nisbatan ancha keng va mavhumdir.

3. Anglashilgan ma'noning ko'lamini bilan. Leksik ma'no alohida olingan so'zlarda yoki so'zlar guruhida ifodalanishi mumkin. Grammatik ma'no esa so'zlarning butun bir turkumidan yoki turkumdosh so'zlarning aksariyatidan anglab olinadi.

4. Grammatik ma'noning muqarrarligi bilan. Grammatik ma'nolar so'zlarning lug'aviy ma'nolariga shunchaki qo'shilib keladigan ma'nolar emas. Binobarin, iatlyan tilida ot rod, son, aniqlik, noaniqlik grammatik kategoriyalarisiz, fe'l esa shaxs, son, mayl, zamon, nisbat kategoriyalarisiz tasavvur qilinmaydi. Muqarrar kategoriyalar majmuasi so'zning grammatik formasini tashkil etadi.

5. So'z referensial tabiatining o'zgarishi yoki o'zgarmasligi bilan. So'zga grammatik unsur qo'shilishi bilan so'zning leksik ma'nosi o'zgarmaydi va u avvalgiday moddiy borliqdagi o'sha ob'ektni anglataveradi. Lekin, biror bir leksik

element soʻzga qoʻshilsa, uning maʼnosi oʻzgaradi va uboshqa referentga ishora qiladi.

6. Grammatik maʼnolar doirasining cheklanganligi. Soʻzda grammatik maʼnolar soni cheklangan boʻlishi lozim. Chunki soʻzda qoʻshimcha grammatik maʼno gavdalansa, ularga xos grammatik maʼnolar soni ham oshib ketadi va natijada muloqotning qiyinlashishiga olib keladi. Zero, leksik maʼno cheksiz ekan, grammatik maʼno cheklangan boʻlishi lozim.

Ushbu boʻlimga xulosa tariqasida shuni taʼkidlash lozimki, grammatik kategoriya tushunchasini anglab etish uchun avvalo, tildagi leksik va grammatik maʼno tushunchalarini farqlash lozim boʻladi. Ularning oʻrtasidagi oʻzaro farqni toʻgʻri tushunib etgandan soʻnggina grammatik kategoriya tushunchasini idrok qilish mumkin boʻladi. Binobarin, tilda grammatik kategoriya grammatik maʼno va grammatik shakl yigʻindisidan kelib chiqadi.

2. Feʼllarda shaxs va son kategoriyasi

Umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tillarda turli grammatik maʼnolar uchraydi. Lekin, bu grammatik maʼnolar va ularning ifoda usullari hamma tillar uchun umumiy va bir xil emas. Har bir tilda oʻziga xos grammatik maʼnolar va ularni ifodalash usullari mavjud. Ular ayrim-ayrim holda emas, balki maʼno turlarining yaqinligiga koʻra guruh-guruh holda uchraydi. Bunday guruhlarda ular son jihatdan kamida ikkita va undan ortiq boʻlishi mumkin. Ana shunday birikmalar tilshunoslikda grammatik kategoriya, yaʼni umumlashgan grammatik maʼno boʻlib, u tilning qaysi morfologik turga kirishini koʻrsatadi va oʻz ifodasini soʻzlarning oʻzgarishida yoki gapda soʻzning bogʻlanishida topadi.

Feʼl soʻz turkumi boshqa soʻz turkumlariga qaraganda ancha boy va murakkab grammatik kategoriyalar tizimiga egaligi bilan ajralib turadi. Italyan tili grammatikasida feʼl soʻz turkumining grammatik kategoriyalari shaxs, son, zamon, mayl va nisbat kategoriyalaridan iboratdir. Lekin, baʼzi grammatik tilshunoslar shaxs va son kategoriyasini feʼlning grammatik kategoriyalari qatoriga kiritish kerakmi

yoki yo‘q degan munozarali savolni ham o‘rtaga tashlaganlar. Biroq, shaxs va son kategoriyasiz fe‘lning grammatik mohiyatini ochib berish mumkin emas.

Italyan tilida fe‘l kategoriyalari sintetik va analitik shakllarda o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham affiksatsiya, ichki fleksiya va yordamchi so‘zlar bunday grammatik kategoriyalarni ifodalash vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Italyan tili fe‘l tizimida shaxs va son kategoriyasi faqat sintetik shaklga, nisbat kategoriyasi analitik shaklga, zamon, va mayl kategoriyalari esa sintetik va analitik shakllarga ega.

Fe‘l so‘z turkumiga xos bo‘lgan shaxs va son kategoriyasi ichki paradigma asosida sodir bo‘lib, fe‘l shaxsli shaklining har qanday paradigmasida mavjuddir. Italyan tilida fe‘llardagi shaxs va son kategoriyasi boshqa tillarga nisbatan unchalik keng taraqqiy etmagan. Negaki, mavjudlik ma‘nosidagi fe‘llardan tashqari barcha fe‘llar shaxs shakliga ega emas. Mavjudlikni ifodalaydigan fe‘llar shaxs va son kategoriyasiga ega. Bunday fe‘llar hozirgi zamonada assimetrik paradigmani tashkil etadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, italyan tili fe‘llariga xos bo‘lgan shaxs va son kategoriyasi ayrim hollarda assimetrik tarzda parcha-parcha ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin ekan. Bu holat qadimgi italyan tilidan hozirgi zamon italyan tiliga qolgan me‘rosdir. Negaki, qadimgi italyan tili fe‘l tizimida shaxs va son kategoriyasi ancha yaxshi rivojlangan bo‘lgan.

Shaxs-son ma‘nolari fe‘lga xos grammatik ma‘nolar bo‘lib, bu ma‘nolar italyan tilida bir-biriga qiyosan olinishi mumkin bo‘lgan bir necha shakllar orqali ifodalanadi. Masalan, quyida italyancha *andare(bormoq)* fe‘lining hozirgi zamon tuslanishiga e‘tibor qilsak, bu tilda fe‘llarga xos shaxs va son kategoriyasi ancha keng rivojlanganligining guvohi bo‘lamiz : *andare - bormoq*

Birlik:

Ko‘plik:

1-shaxs : *vado*

1-shaxs : *andiamo*

2-shaxs : *vai*

2-shaxs : *andate*

3-shaxs : *va*

3-shaxs : *vanno*;

Fe'llarning tuslanishli shakllarida harakatning bajaruvchisi, ya'ni bajaruvchi shaxs ham ko'rastiladi. Harakat bajaruvchisi so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zaro suhbatda ishtirok etmaydigan o'zga shaxs bo'lishi mumkin. Bu ma'nolar maxsus formantlar yordamida ifodalanadi. Shaxs bildiruvchi formantlar ayni vaqtda bajaruvchining son-miqdorini ham ko'rsatadi. Bajaruvchining birdan ortiqligini ko'rsatuvchi shakl shu shaxsning ko'plik shakli hisoblanadi. Masalan, *andare - bormoq* fe'li 1-shaxs birlikda *vado* – *boryapman* bo'lsa, 1-shaxs ko'plikda esa *andiamo- boryapmiz* shakliga ega bo'ladi va bu shakllar o'zlarida ham shaxs va ham son kategoriyalarini aks ettira oladi.

Fe'llarning tuslanishli shaklida harakatning bajaruvchisi ham ko'rsatiladi. Harakat bajaruvchisi so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zaro suhbatda ishtirok etmaydigan o'zga shaxs bo'lishi ham mumkin. Bu ma'nolar italyan tilida maxsus formantlar yordamida ifodalanadi. Shaxs bildiruvchi formantlar bir vaqtning o'zida harakat bajaruvchisining son – miqdorini ham ko'rsatadi. Bajaruvchining birdan ortiqligini ko'rsatuvchi shakl shu shaxsning ko'plik shakli bo'lib hisoblanadi. Masalan, *andiamo - boryapmiz* 1-shaxs ko'plik ma'nosini anglatadi. Quyida har bir shaxsning birlik va ko'plik shakllarini alohida tavsiflashga harakat qilamiz:

- Birinchi shaxs birlik shakli harakat bajaruvchisi so'zlovchining o'zi ekanligini ko'rsatadi, ya'ni 1-shaxs : *vado* singari. Uning ko'pligi esa, ya'ni *andiamo* harakatning so'zlovchi mansub bo'lgan jamoaga tegishli ekanligi ko'rsatadi.

- Ikkinchi shaxsning birligi, ya'ni *vai* harakatning bajaruvchisi tinglovchi ekanini, ko'pligi esa tinglovchi mansub bo'lgan jamoa ekanini ko'rsatadi, ya'ni *andate* singari.

- Uchinchi shaxs shakli so'zlovchi va tinglovchidan tashqari, boshqa bir shaxs, ya'ni *va* kabi yoki shaxslar guruhi harakat bajaruvchisi ekanligi tushuniladi, ya'ni *vanno* singari.

Fe'llarning birinchi va ikkinchi shaxs shakli faqat kishilarga nisbatan, uchinchi shaxs shakli esa nafaqat, kishi, balki predmetlarga nisbatan ham qo'llanadi.

Umuman olganda, italyan tili fe'llariga xos bo'lgan shaxs va son kategoriyasi haqida shunday xulosaga kelish mumkinki, ular italyan tilida ancha yaxshi rivojlangan bo'lib, bu ikki grammatik kategoriyani biri birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

3. M a y l v a z a m o n k a t e g o r i y a s i

